

Опубликовано на Aloqabank.uz (<http://aloqabank.uz>)

# Internet-banking

[Korporativ mijoz internet banking tizimiga o'tish \(asosiy\)](#)

[Korporativ mijoz bank tizimiga o'tish \(zaxira\)](#)

Ushbu tizimlar bo'yicha **savollar yuzaga kelganda** bank xodimlariga telegram bot orqali (@aloqabank\_supportbot) to'g'ridan to'g'ri yoki 71-230-77-77 telefon raqami orqali murojaat qilishingiz mumkin

**Internet-banking** – bankdagi hisob raqamingizni internet orqali boshqarish imkoniyatini beradigan xizmat bo'lib, ushbu tizimda samarali ishlash uchun internet tarmog'iga ulangan va Microsoft Internet Explorerga ega kompyuter bo'lsa yetarli.

## Internet-banking quyidagi imkoniyatlarga ega:

- bankka barcha turdagi moliyaviy hujjatlarni yuborish;
- istalgan davr uchun bankdagi hisobraqamlardan ko'chirmalar va ularga tegishli boshqa hujjatlarni olish;
- haqiqiy vaqt tartibida to'lov hujjatlarini bank ishlovidan o'tishining barcha bosqichlarini kuzatish;
- xatolar to'g'risida xabarlarini tezkor olish;
- kirim va chiqim to'lov hujjatlarini ko'rish va chop etish.

[Internet banking tizimini o'rnatish bo'yicha yo'riqnoma](#) | \*.pdf | 1 Mb |



**IKEYALL kalitiga drayverlarini yuklab olish**

[WINDOWS VISTA-XP-7-8-10 \(32 razryadli tizimga\)](#) | \*.rar | 18 Mb |

[WINDOWS 7 \(64 razryadli tizimga\)](#) | \*.rar | 18 Mb |

[WINDOWS 8-10 \(64 razryadli tizimga\)](#) | \*.rar | 18 Mb |



**EPASS kalitiga drayverlarini yuklab olish**

WINDOWS 7/8/10 (32/64 razryadli tizimga) | \*.rar | 20 Mb |

Internet-banking Bank-mijoz tizimining takomillashtirilgan turi bo'lib, uning barcha afzalliklarini saqlab qolgan holda bank mijozlari uchun bir qator yangi qulaylik va imkoniyatlarni yaratadi:

- **Tezkor** - bank va mijoz o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar haqiqiy vaqt tartibida amalga oshiriladi. Siz kompyuteringiz ekranida to'lov hujjatlarini bank ishlovidan o'tishining barcha bosqichlarini kuzatishingiz mumkin. Hisob raqamingizga tushgan to'lovlar to'g'risidagi ma'lumot, to'lov bankka tushgan zahoti yangilanadi.
- **Xavfsiz** - uzatilayotgan axborot sanksiyasiz kirishdan xalqaro kriptografiya formatidan foydalangan holda shifrlash yo'li bilan himoyalanaadi.
- **Sodda** - Internet-bankingga ulanish juda soddadir. Buning uhcuhn faqat bizning bankda hisob raqamingiz bo'lishi va "Internet-banking" hamda elektron raqamli sertifikat tizimida xizmat ko'rsatish shartnomasi imzolangan bo'lishi kerak.
- **Tejamkor** - Internet-banking xizmatidan foydalanish va ro'yxatdan o'tish BEPUL taqdim etiladi.
- **Qulay** - to'lov xabarnomalarini rasmiylashtirishda xatoga yo'l qo'yish mumkinligi haqida xavotirga o'rin yo'q. Tizim hujjatlarni to'g'ri to'ldirilishini tubdan nazorat qilib, xatolarni ko'rsatib boradi. Xato to'ldirilgan hujjatni jo'natgan holatingizda ham Siz uni zudlik bilan to'xtatishingiz mumkin va unda hisob raqami bo'yicha operatsiya amalga oshirilmaydi.

**Ariza** | \*.pdf | 69 Kb |

**Bank bilan shartnoma** | \*.pdf | 426 Kb |